

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

ZAMONAVIY INOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB CHET TILIDA O‘QITISH

BEGIMQULOVA SHAHRIZODA

541-19-GURUH TALABASI

Anotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’limning chet tillariga berilgan katta ahamiyati va ularni o‘zlashtirishda inovatsion texnologiyalardan foydalanib yoritilgan. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarga ingliztilini o‘qitishda inovatsion texnologiyalar va intellektual o‘yinlar interfaol metodlardan foydalanib naodatiy prinsiplar hamda pedagogik taxnologiyalardan foydalangan holda bolalarga bilim berish chet tilida gapirishga qiynalmasligi uchun kuchli bilimlarga egabolishi uchun inovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot kommunikatsion texnologiya, talafuz, til o‘rganish, Bolalar kitobi, so‘z o‘yini, hikmatli so‘zlar.

Mustaqillikdan so‘ng bizning mamlakat chet tillarini o‘qitishga qiziqishi oshib bordi. Va yoshlarga ko‘p qulayliklar yaratilaboshladi ushbu chet tillarni o‘rganish va dunyo qarashi kengayishi va shu bilan bir qatorda o‘zbekiston yoshlari hech kimdan kam bo‘lmasligi uchun yurtboshimiz biz yoshlarga ko‘p sharoitlar yaratib berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov aytganlaridek „Kelajak yoshlar qo‘lida“. Albatta biz yoshlarga chet tillarini o‘rganishimiz uchun juda katta imkoniyatlar va yo‘llar ochib berilmoqda yurtboshimiz tomonidan. Mamlakatimiz rivojlanishi uchun kundan kun turli xil qarorlar qabul qilinmoqda. Mana shu qabul qilingan qarorlar ichida Maktabgacha va undan

yuqori bo'lgan o'quvchilarning chet tillarini o'rganishga ham alohida etibor qaratildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda birinchi o'rinda bolaning xohishiga qarab har xil turdagi harakatli o'yinlardan foydalansak bo'ladi. Misol uchun:abc, animals,numbers, body, family, colours mavzularini harakatli o'yinlar, qiziqarli metodlar va intellektual o'yinlar orqali o'rgatishimiz mumkin.Maktabgacha yoshidagi bolalarga yana yoshlariga mos qilib inglizcha qo'shiqlar ham yotlatish kerak.Bu esa bola miyasini yanada bilim jihatidan kengayishiga zukko bo'lishiga olib keladi. Yosh bog'cha yoshidagi bolalarga „ Hello,Fingers,ABC, Clap your hand"degan qo'shiqlar yotlatsak tez yotlashiga oson bo'ladi. Hozrgi kunda texnologiyalar rivojlanib ketgan hamma maktablar komoyuter va televizorlar bilan taminlangan bu esa bolalarning chet tillarini o'quvchilarning chet tillarini o'rganishiga juda katta imkoniyatdir.Maktab o'quvchilariga chet tillarini o'rganishda Kompyuter yoki tevizorlardan foydalanib ularga har kuni har xil intellektual noodatiy metodlardan qo'llab o'quvchilarni fanga qiziqtirishimiz lozim. Misol uchu:maktab o'quvchilarining qaysi bir sinfida birinchi soat ingliz tili darsi bo'lsa,dars boshlangan keyin bolalarning ruhiyati va kayfiyatini ko'tarish uchun inglizcha qo'shiq qo'yib berishimiz kerak. CHunki bu bola psixalogiyasiga tasr ko'rsatadi. Bola uydan hafa holda yoki hursand holda kelishi mumkin. O'quvchilarga inavatsion texnologiyalarimizdan foydalanib yani radio,televizor,kompyuterlarimizdan foydalanib ularga listening,reading, writting,speakinglarni bemalol o'rgana olishi uchun yuqorida aytib o'tilgan texnologiyalardan tez tez foydalanib turishimiz kerak.Hozrgi kunda o'qituvchilarimiz o'quvchilari uchun qiziqarli metodlardan foydalanmoqda. Hozrgi bilimga chanqoq o'quvchilarimiz uchun inglizcha yozish,gapirish,inglizcha o'yinlar o'ynash hox o'g'il bola bo'lsin,hox qiz bola ular uchun qiziqarli. AQSHda o'qituvchilar o'quvchilariga „Creative Problem Solving"metodli o'yinlaridan

foydalaniladi. O'quvchilarga Multfilim kino musiqadan tashqari rasmlar orqali ham ingliz tilini o'rgatishimiz mumkin. Har xil hayvon yoki mevalarning rasmini rangli qilib chizib buni bolalarga ko'rsatib inglizcha nomini aytinglar desak, o'quvchilar inglizcha nomini topishga harakat qiladi. Bu ham bolaning bilimi rivojlanishiga katta yordam beradi. Hozrgi zamon yoshlari juda qobilyatli va bilimga chanqoq yoshlardir. O'qituvchilarimiz o'quvchilarning bu bilimini va qobilyatini yuzaga chiqarishga yordam berishlari lozimdir. Chunki bazi o'quvchilarda yashirin qobilyat ham bo'lishi mumkin. Buning uchun esa o'qituvchilar astoydil harakat qilishlari va har xil intellektual metodlardan va inovatsion texnologiyalardan, internetlardan foydalanib chet el o'qituvchilaridan ham andoza olishlari kerakdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlar to'g'risida shunday deydi, „Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishimizdan iborat“.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Karimov.I.A., Milliy istiqloq mafkurasi-halq etiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.

T.O'zbekiston.1998 Karimov.I.A., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch,, T.Ma'naviy.2008

O.Hoshimov.I.Yoqubov., „Ingliz tilini O'qitishning Metodologiyasi“.Toshkent. 2003.

Qubonov.SH.Y.Saidxalilov., „Ta'lim sifatini boshqarish“.T.SHarq.